

## INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALAR

*Navoiy viloyati Zarafshon Shahar "Kamalak" nomli**20 - son DMTT Tarbiyachisi**Bobojonova Mohlaroyim Mels Qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Inklyuziv ta'larning maqsadi va vazifalari haqida fikr yuritiladi. Zamnaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri – har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashdir. Shu ma'noda, inklyuziv ta'lim konsepsiysi butun dunyoda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Inklyuziv ta'lim – bu jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalar hamda barcha yoshdagi shaxslar uchun umumiy ta'lim muhitida ta'lim olish imkoniyatini yaratadigan tizimdir

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, integratsiya, bilim, ko'nikma, pedagogika, ehtiyoj, talab

**Kirish.** Inklyuziv ta'lim bu, shunday ta'lim-tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruxiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar bolalar umumiy tarzda, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir. Alovida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassassalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish. Inklyuziv ta'larning asosiy maqsadi – har bir bolaning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Prizidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini

yaxshilash maqsadida farmon imzolandi. Vazirar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 12-oktabrdagi “Alohidat a’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlash to’g’risidagi” 638-son qaror qabul qilindi. 13-oktabr 2020-yildagi “Alohidat a’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan. “2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiya”sida alohidat a’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo’yicha quydagi vazifalar belgilandi: · alohidat a’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; · alohidat a’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar o’qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qollanmalar, turli kasblarga o’qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; · alohidat a’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni o’qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko’tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy pedagogik kuzatish bo’yicha mutaxassislar) bilan ta’minalash; · alohidat a’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning moslashishi va integratsya uchun maktab-inernatlarini bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minalash va boshqalar. Bundan tashqari, juda ko’p maxsus ehtiyojli bolalar ayrim sabablarga ko’ra, masalan, ota-onalarni maxsus maktab-internatlarga yubormasligi sababli ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Alohidat ehtiyojli bolalarning otaonalarini xohish-istikclarini inobatga olgan holda va ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash maqsadida Respublikamizda alohidat yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko’ra maxsus yoki umumta’lim tizimida ta’lim olishni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta’lim siyosati amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi ta’limni boshlash imkoniyatiga ega bo’lgan barcha bolalar, shu jumladan alohidat yordamga muhtoj bo’lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta’lim alohidat yordamga muhtoj bolalarga ta’lim olishni taqdim etishi bilan katta

ahamyatga ega. Bu ana shunday bolalarni uzlusiz umumiy ta'lim tizimiga kiritishni bildiradi. Ko'p hollarda alohida yordamga muhtoj bolalarning otaonalari o'z bolalarining ta'limga oid huquqlari va boshqa imkoniyatlari haqida noto'g'ri tushunchaga ega bo'lganlari natijasida bu bolalarga to'g'ri ta'lim berishni talab qilmaydilar. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilishni o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'roq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qtish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi.Umuman olganda, inklyuziv ta'limni O'zbekistonda joriy qilishni yana bir afzallik tomoni shundaki, maxsus ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan joylarda ham imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimiga to'liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratadi.Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim jamiyatda barcha bolalarga, jumladan, nogironligi yoki maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga teng imkoniyat yaratishning muhim omili hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim mакtabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab, umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarigacha keng joriy etilmoqda. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning afzallikkleri va uning jamiyatga ta'siri haqida so'z yuritiladi.



### Inklyuziv ta'lim qanday ta'lim?

**Inklyuziv ta'lim** – (inklyuziya – inglizcha inclusion - уйг'унлашып) hamkorlikdagи ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan.



**Inklyuziv ta'lim bu**, shunday ta'lim -tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruxiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar **BARCHA** bolalar umumiy tarzda, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir.



**Inklyuziv ta'lim bu:**  
Alovida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassassalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.



Bunga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

1. Hammaning ta'lim olish huquqini ta'minlash – Nogironligi yoki boshqa farqli jihatlari bor bolalar ham umumiy ta'lim tizimida o'qish huquqiga ega bo'lishi kerak.
2. Ijtimoiy integratsiyani oshirish – Inklyuziv ta'lim orqali imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatga moslashadi va tengdoshlar bilan muloqotda bo'lib, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3. Shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish – Har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim muhitini yaratish.
4. Ta'lim sifatini oshirish – Faoliyatga yo'naltirilgan pedagogika va innovatsion metodlarni joriy etish orqali barcha bolalar uchun sifatli ta'lim berish.

#### 2021-2022 o'quv yili tajriba-sinov sifatida inklyuziv ta'lim 42 ta maktablarda joriy etildi



#### Inklyuziv ta'limning asosiy vazifalari

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

1. Ta'lim muassasalarini inklyuziv tizimga moslashtirish

Maktab va universitetlarda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus sharoitlar yaratish.

Ta'lismuassasalarida psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish.

## 2. O'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash

O'qituvchilarga maxsus treninglar o'tkazish.

Individual yondashuv metodikasini o'rgatish.

Maxsus pedagogika va defektologiya sohasida bilim berish.

## 3. Jamiyatda inklyuziv ta'limga madaniyatini shakllantirishOta-onalar va pedagoglarni inklyuziv ta'limga ahamiyati haqida xabardor qilish.

Nogironligi bor bolalarga nisbatan diskriminatsiyani kamaytirish uchun ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot olib borish.

## 4. Maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish

Inklyuziv ta'limga mos keladigan individual o'quv rejalarini yaratish.

Maxsus o'quv materiallari va texnologiyalarini joriy etish.

## 5. Inklyuziv muhit yaratish



Har bir bola o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishi uchun teng sharoit yaratish. Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish.

### INKLYUZIV TA'LIM SOG'LOM BOLALAR HAYOTIGA QANDAY TA'SIR KO'RSATADI?



Inklyuziv ta'lif quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Teng huquqlilik – Har bir bola ta'lif olish huquqiga ega.

Maxsus ehtiyojlarni inobatga olish – Ta’lim jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtiriladi.

Jamoaviy o‘qitish va rivojlantirish – Nogironligi bor bolalar va sog‘lom bolalar bir sinfda tahsil oladi.

### Inklyuziv Ta’limning Afzallikkleri

#### INKLYUZIV TA’LIM IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA NIMA BERADI?



O’Z IMKONIYATINI O’ZI UCHUN KASHF ETISH IMKONINI



MUSTAQIL HARAKATLANISH, BIRGALIKDA, HAMKORLIKDA ISHLASH IMKONIYATINI



DUNYOQARASHI KENGAYADI, HAYOTIY TAJRIBASI OSHADI

#### 1. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi

Inklyuziv ta’limda turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar bиргаликда o‘qiydi. Bu esa ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘zaro tushunish va hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi .

#### 2. Mehribonlik va bag‘rikenglik tuyg‘ulari shakllanadi

Inklyuziv sinflarda o‘qigan bolalar boshqalarning ehtiyojlarini tushunishga, ularga yordam berishga va mehribon bo‘lishga o‘rganadilar. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi .

#### 3. Ta’lim sifatini oshiradi

Pedagoglar inklyuziv ta'limda turli usullar va yondashuvlardan foydalanishga majbur bo'ladilar. Bu esa o'qitish sifatining oshishiga olib keladi .

#### 4. Nogironligi bor bolalarning jamiyatga integratsiyasi osonlashadi

Inklyuziv ta'lim natijasida maxsus ehtiyojli bolalar jamiyatga yaxshi moslashadi, o'zlarini kamsitilgan his qilmaydilar va kelajakda o'zlarini erkin his qilishlari osonlashadi .

#### 5. Ota-onalar va jamiyatning ta'lim jarayonida faolligi ortadi



Inklyuziv ta'lim tizimida ota-onalar farzandlarining rivojlanishida faol ishtirok etadilar. Bu esa jamiyatning ta'lim jarayoniga bo'lgan e'tiborini oshiradi .

**Xulosa,** Inklyuziv ta'lim – har bir bolaning o'z salohiyatini to'liq namoyon qilishi uchun muhim vositadir. Uning asosiy maqsadi – har kimga teng ta'lim olish imkoniyatini yaratish bo'lsa, vazifalari esa shu maqsadga erishishga yo'naltirilgan. Inklyuziv ta'lim tizimi rivojlanishi natijasida jamiyatda inson huquqlari va ijtimoiy tenglik tamoyillari mustahkamlanadi. Shu boisdan, har bir ta'lim muassasasi va jamiyat a'zosi inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashi zarur. Inklyuziv ta'lim barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratib, ularning har tomonlama rivojlanishiga

ko‘maklashadi. Bu tizim jamiyatda bag‘rikenglik, hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

### **Adabiyotlar ro’yxati**

1. UNESCO (2020). Inclusive Education: Guidelines for Policymakers. Paris: UNESCO Publishing.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Ainscow, M. (2005). Developing Inclusive Education Systems: What Are the Levers for Change? Journal of Educational Change, 6(2), 109-124.
4. Slee, R. (2011). The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. Routledge.
5. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Kodeksi (2023). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi (2022). Inklyuziv ta’limni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: XTV nashriyoti.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonun yangi qonuni. 23 sentabr 2020 yil Sh.Mirziyoyev. 9. SH.A.Amonashvili va b. ”Pedagogik izlanish” Toshkent “O’qituvchi” 1990yil. 608 b.
10. M.G.Davlatshin “Ta’limning psixologik asoslari” Toshkent “O’qituvchi” 2000 yil 20 b.
11. Mirzaev, O. (2022). THE ROLE OF ETHICS AND AESTHETICS IN THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL RELATIONS BETWEEN INDIVIDUALS. Science and innovation, 1(B6), 125-130.

12. Nargiza, Q. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA LOGOPED ISHINING OLIB BORILISHI. PEDAGOGS jurnali, 22(2), 52-54.
13. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 295-298.
14. Мирзаев, О. Х. (2020). Воспитание профессионально-нравственных качеств у будущих молодых фермеров средствами отечественной литературы. Science and Education, 1(2), 508-513.